

Konteyneri bo'lgan korxonalar (tashkilot, muassasalar va yuridik shaxs)lar uchun qattiq maishiy chiqindilarni (Q.M.Ch) ni olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish

ShARTNOMASI № 032

№ 032 Ilova №1 son shartnomasiga  
 «12» 01 2022 y.

12.01.2022

Shartnoma tuzilgan joy

№	Chiqindilar hosil bo'ladigan ob'ektlar nomi	O'lchov birligi	Ish hamji	Izoh
1	Ijaradagi korxonalar va tashkilotlar soni			
2	Oshxona, restoran, kafedra	M2		
	a) o'rindiqlar soni			
	b) umumiy maydoni			
3	Poliklinika, stomatologiya tibbiyot markazi (keluvchilar soni)			
4	Yotoqxona, mehmonxona, kasalxona-sanatoriya (joylar soni)			
5	Kinoteatr (o'rindiklar soni)			
6	Oziq-ovqat do'koni	M2		
7	Xo'jalik mollari do'koni	M2		
8	Aralash mollalar dukoni	M2		
9	Oliygox, kollej, litsey, maktab (o'quvchilar soni)			
10	Ishlab chiqarish sexlari maydoni	M2		
11	Kompyuterxona	M2		
12	Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari	M2		
13	Idora	M2		
14	Boshqa xizmat ko'rsatish korxonalari	M2		
15	Omborxonalar maydoni	M2		
16	Yer kadastr bo'yicha umumiy maydon	M2		
17	Shtat bo'yicha xizmatchilar soni			
18	Berilgan ma'lumotlarning xaqqoniyligiga kafolat beramiz			
	JAM...			

Bundan buyon matnda «Ijrochi» deb ataluvchi korxonalar to'g'risidagi nizom asosida faoliyat olib boruvchi ATF Yashnobod Maxsustrant avtokorxonasi nomidan rakba Turakhodjaev J.P. bir tomondan, va bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi raxbar Parvizbek Raximov nomidan ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

- Shartnoma mazmuni
  - «Buyurtmachi» topshiradi, «Ijrochi» esa 1 marotaba 19000 dona (750 l, 1100 l, 20 m3) chiqindi saqlash qutildagi QMCh (qattiq maishiy chiqindilarni tashib chiqib ketish ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi, «Buyurtmachi» esa xizmat to'lovlarni to'lab borishi shart.
  - Q.M.Ch.larning umumiy xajmi bir oyga 1,93 m3, bir yilga 5,79 m3 tashkil etadi.\*

2. Xisob-kitob qilish tartibi

- Ushbu shartnomani imzolash paytida amaldagi narx har bir m3 QMCh uchun 53986,50 so'm, QQS(15%) bilan 62084,54 so'm.
- Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lov summasi 359.469,48 so'mni tashkil etadi, shundan, byudjet mablag'lari hisobidan 359.469,48 so'mni tashkil etadi, shundan, byudjet mablag'lari hisobidan 359.469,48 so'mni tashkil etadi.

- Har oyning 15 sanasigacha keyingi oyning rejayivi ish hajmiga (byudjet tashkilotlarida shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab oldindan 100 foiz miqdorida to'lovlarni amalga oshirish.
- Har oyning 15 sanasigacha o'tgan hisobot oy uchun ko'rsatilgan xizmat to'lovlarni «Ijrochi»ning hisob raqamiga bajarilgan ish dalolatnomasi asosida to'liq to'lab berish.

3. «Buyurtmachi» majburiyatlari

- Qattiq maishiy chiqindilarni yig'ilish hajmi va olib chiqib ketish muddatiga binoan kerakli miqdorda chiqindilar yig'ish qutillarini alohida shartnomalar va to'lovlar asosida sotib olish.
- QMCh tashlanadigan qutillarni qurilish va yirik hajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha, ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida bir marotabaliq shartnoma tuzish.

\* Izoh: Byudjet mablag'lari buyicha yillik xarajatlar smetasi tegishli moliya organlarida ro'yzatdan o'tkazilgunga qadar, vaqtinchalik xarajatlardir smetalarida belgilangan mablaglar doirasidagi summa va miqdorlar kursatiladi.



Parvizbek Raximov  
 (F.I.Sh.)

3.3. Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarning erkin yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz xolda saqlashni ta'minlash.

3.4. QMChni o'z vaqtida ushbu chiqib ketilishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan xollarda telefoniga telefonogramma yo'llash orqali «Ijrochi»ga ma'lumot berish.

3.5. Bajarilgan ishning xajmini «Ijrochi» ning hujjatlarida «Buyurtmachi» vakilining imzosi va korxonaga muhri bilan tasdiqlab borish.

3.6. Har oyning boshida o'tgan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini ko'rsatuvchi hisob dalolatnomasini rasmiylashtirish.

#### 4. «Ijrochi»ning majburiyatlari.

4.1. Alohida shartnoma va to'lovlar asosida «Ijrochi» «Buyurtmachi»ga chiqindi yig'ish qutilami kerak bo'lgan miqdorida sotish.

4.2. «Buyurtmachi» xududidan QMCh tashlanadigan maxsus qutilardan maxsus avtomashinalarda jadval asosida chiqindilarni olib chiqib ketilishini ta'minlash.

4.3. «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga asosan qo'shimcha to'lov hisobiga qurilish va yirik hajmdagi chiqindilarni, shox-shabballarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.

4.4. «Buyurtmachi» tomonidan QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilmagani to'g'risida ma'lumot kelib tushgandan so'ng 1 kun muddat ichida «Buyurtmachi» hududidan chiqindilarni olib chiqib ketish.

4.5. Biriktirilgan yo'nalishda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

#### 5. Tomonlarning javobgarliklari

5.1. «Ijrochi» tomonidan QMCh kelishilgan vaqtda olinmagan taqdirda «Buyurtmachi» telefon orqali «Ijrochi» ning vakilini dalolatnoma tuzish uchun chaqirtirishi kerak.

Agar «Ijrochi» ushbu xabarnomadan so'ng o'z vakilini dalolatnoma tuzish uchun yubormasa, yoki 24 soat ichida QMCh olib chiqib ketilmasa, «Buyurtmachi» jamoatchilik ishtirokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada ko'rsatilgan jazo turlarini qo'llash uchun asos hisoblanadi.

5.2. «Ijrochi» o'z vaqtida QMCh olib chiqib ketmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida har bir kun uchun olib chiqib ketmagan QMCh hajmi qiymatidan 0,5% miqdorida, lekin umumiy summa bajarilmagan ish summasining 50%dan oshmagan miqdorda «Buyurtmachi»ga penya bo'laydi.

5.3. «Buyurtmachi» shartnomada ko'rsatilgan to'lovlarni muddatdan kechiktirilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% idan oshmagan miqdorda «Ijrochi»ga penya to'laydi.

5.4. Jarima va penya to'lash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### 6. Nizolarni hal qilish tartibi.

6.1. Shartnomani bajarish paytida yuzaga kelgan muammolar tomonlarning o'zaro muzokaralari orqali hal kilinishi mumkin bo'lmagan hollarda iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

6.2. Tomoilarning manzili, korxonaga nomi, hisob raqami o'zgarigan taqdirda hamda QMCh hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar paydo bo'lganda bir tomon ikkinchi tomonga 10 kun ichida yozma ma'lumot beradi.

6.3. Shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan QMChning hajmi «Buyurtmachi»ning aybi bilan taqdim etilmasa, yoki «Buyurtmachi» «Ijrochi»ning yuk tashish hujjatlarini rasmiylashtirishdan bosh tortsa, «Ijrochi» jamoatchilik vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma ish to'liq miqdorda bajarildi deb hisoblanishiga va to'liq miqdorda to'lov amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

#### 7. Fors-major.

7.1. Fors-major xolati sodir bo'lganda tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlardan ozod etiladilar (korxonaning tugatilishi, rahbar yoki javobgar shaxs o'zgarishi, moliyaviy qiyinchiliklar kabilar fors-major xolatiga kirmaydi).

#### 8. Qo'shimcha shartlar

8.1. «Ijrochi» hom-ashyo, yoqilg'i-moylash maxsulotlari va eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgarishi munosabati bilan belgilangan tartibda bir tomonlama xizmat narxlarini o'zgartirishga xaqlidir va u «Buyurtmachi»ni bu to'g'rida yozma ravishda ogohlantiradi.

#### 9. Shartnomaning muddati

9.1. Ushbu shartnomaning muddati «01» 01 2022 yildan «31» dekabr 2022 yilgacha belgilanadi. Byudjet tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va amal qilish muddati «31» dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin to'xtatmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu haqida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi, aks holda shartnoma shartlari o'z kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.

9.3. Tomonlar shartnoma muddati tugagandan so'ng yozma ravishda boshqa munosabat bildirmasalar shartnoma bekor qilingunga qadar kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar bilan tuzilgan shartnomalar bundan mustasno.

9.4. Ushbu shartnoma bir hil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi «Buyurtmachi»da, ikkinchi nusxasi «Ijrochi»da saqlanadi.

#### Taraflarning yuridik manzilgoxlari va to'lov rekvizitlari

«Ijrochi»

ATF Yashnobod-Maxsustrans  
(yetakazib beruvchining nomi)

Manzil: 100146, Yashnobod tumani,  
Uysozlar ko'chasi 2-tor 42  
Tel.: 280-37-52, 280-25-49  
X/p: 20210000400118948009  
Bank nomi: ATIB Ipoteka bank  
Shayhantaxur filiali  
MFO: 00425 INN: 200903001  
OKED: 38110

«Buyurtmachi»

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Toshkent turizm va mehmonxonaga menejmentu texnikumi  
Manzili: Yashnobod tumani, Maxtumquliy 2-tor ko'chasi, 1-uy, Tel: 280-40-30  
SH. N: 1000146100109120101500  
STIR: 296 836 987 OKED: 85320  
Markaziy boshqarmasi sh. Bosh boshqarmasi XXXM MFO: 00014  
O'z Respub. Moliya qayirliqi g'aznachiligi  
G'az. N: 2340 2000 3001 0000 1010  
G'aznachilik bo'limi STIR: 201 122 818  
sh/xt



- 1- tegishli g'azna hisobvarag'i ko'rsatiladi.
- 2- tegishli byudjetdan mablag' oluvchining G'aznachilik bo'linmasida ochilgan shahsiy hisobvarag'i (yoki shaxsiy hisobvarag'lar) ko'rsatiladi.
- 3- Byudjetdan mablag' oluvchining g'aznachilikdagi byudjetdan tashkari mablaglari bo'yicha shahsiy hisobvaragi yoki bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaragi ko'rsatiladi.